

FOREIGN LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGIES THROUGH GAMES FOR SMALL CHILDREN

Dilafruz Vahapjanovna SUBANOVA¹
Tashkent State Pedagogical University
Lecturer of the Department of English
Theory and Teaching Methods
subanovadilafruz88@gmail.com

Abstract

In the article the information is given about some problems of teaching English to young learners. This article also clarifies how to use teaching games during the English lessons considering learners' psychological development.

Key words: Language skills, language sub skills, psychological features, teaching games.

KICHIK YOSHDAGILARGA O'YIN ORQALI CHET TILI O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI

Dilafuz Vahapjanovna SUBANOVA¹
Toshkent davlat pedagogika universiteti Ingliz tili
nazariyasi va o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi
subanovadilafuz88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik yoshdagilarga turli o'yinlar yordamida chet tili o'rgatish masalalari yoritilgan. Maqolada yosh o'rganuvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular yoshiga mos o'qitish usullarini tanlash va ta'lim mazmunidan kelib chiqib o'qitishda foydalanadigan samarali o'yinlar yaratish haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: Nutq faoliyati turlari, til materiallari, psixologik xususiyatlar, o'yin faoliyati.

So'ngi yillarda jamiyatimizda ta'lim sohasiga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ta'limni uzluksiz tarzda bosqichma-bosqich davom ettirish kerakligi "O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"¹gi PQ-4312-sonli qarorida alohida ta'kidlab o'tildi. Bugungi kunda axborotlashish jarayoni tobora kuchayib, ilm-fan rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, bunday jamiyatda bolalarning ham erta rivojlanishi kuzatilmoqda. Shunday ekan, MTM da hamda boshlang'ich sinfda chet til o'rgatishning yangi innovatsion metodlarini ishlab chiqish soha mutaxassirlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Kichik yoshdagi bolalarga chet til o'rgatish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ular o'yinlar orqali, she'r va musiqa hamda rasmlar va o'yinchoqlar orqali olib borilishi mumkin. Ushbu maqolada bolalarga asosan o'yin orqali chet til o'rgatish usullari batafsil yoritilgan.

Bugungi kunda chet til o'qitishning turli metodlari turli metodist olimlar hamda pedagoglar tomonidan yaratilmoqda. Lekin ushbu metodlarni duch kelganini qo'llayolmaymiz. Kichik yoshdagi bolalarga chet til o'rgatishda eng avvalo ularning yosh psixologiyasini chuqur bilish talab etiladi. Chet til o'qitish jarayonida birinchi navbatda bolaning yosh xususiyatlari, temperamenti, xarakteri, xotira, diqqat, nutq hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim

¹<https://www.lex.uz/docs/4327235> O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2019 yil 8 may, PQ-4312-son O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

metodlari tanlanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bu o'yindir. Shunday ekan ularga o'yin orqali chet til o'rgatish samarali usullardan biridir. Chunki, bola ta'lim olishi uchun dars jarayonida qo'rquv, hayajon, uyalish kabi hissiyotlardan holi tarzda bolaning erkin harakat qilishi hamda o'zini namoyon eta olishiga imkon yaratish darkor. Birinchi darsda o'qituvchining qanday usulda dars o'tishiga qarab bola asosiy xulosaga keladi. Agar o'qituvchi bolaning yosh xususiyatlarini bilmasa, uning psixik jarayonlaridan bexabar bo'lsa bolaning birinchi darsdayoq chet til o'rganishga bo'lgan qiziqishi so'nadi. Endi o'qituvchi ming marotaba harakat qilmasin bolaga til o'rgata olmaydi. Chunki u chet til o'qitish shaklini to'g'ri tanlovmagan yoki bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olmagan. Shunday ekan biz pedagoglar maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinflarda chet til o'rgatishning yangicha usullarini ishlab chiqishimiz bugungi davr talabidir.

O'yin orqali chet til o'rgatish o'qitishda bir muncha samarali natijalarga olib keladi. Chunki bunda bola manfaatdor, u o'ynaydi, predmetni ushlab ko'radi, turli harakatlarni bajaradi va o'z o'zidan o'yin tarzida chet tilni idrok eta boshlaydi. Keyingi darslarda bajonidil ishtirok etishni xohlaydi. Bolada qiziqish uyg'ondi. Endi esa chet tilda kommunikatsiya hosil qilish maqsadida nutq faoliyati turlarini hosil qilishga mo'ljallangan o'yin turlarini ishlab chiqish kerak. Bog'cha tarbiyalanuvchilari 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 6-7 yoshdan 10-11 yoshli bolalardan tashkil topgan. Ularning psixologik xususiyatlari ham bir biridan farq qiladi.²

Ushbu maqolada chet til o'rgatishda foydalanadigan bir necha o'yinlar ko'rsatilgan bo'lib, ulardan dars jarayonida samarali foydalanish mumkin. Kichik yoshdagi bolalarga to'rttala nutq faoliyatlaridan asosan ikkitasi ya'ni tinglab tushunish va gapirish o'rgatiladi. Ikkinchi sinfdan boshlab o'qish va yozuv o'rgatib boriladi. Bolaga chet til o'rgatish nominative tarzda emas balki, kommunikativ tarzda o'rgatish maqsadga muvofiq. Nominativ tarzda o'rgatish deganda predmetlarni faqatgina nomini o'rgatish tushuniladi.³ Bu tarzda bola ingliz tilidagi narsa va hodisalarning nomini biladi lekin ularni qo'llayolmaydi va muloqot qila olmaydi. Kommunikativ tarzda esa chet tilda muloqot qilish o'rgatiladi. Misol uchun "This is a boll", ya'ni "Bu koptok". Bunda hech qanday muloqot sodir bo'lmadi. "I have a boll". "Show me the ball, please". Bu yerda esa muloqot hosil bo'ldi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda chet til o'qitishda quyidagi o'yin turidan foydalanish mumkin. O'yin **"Show me please"** deb nomlanadi. Bolalarga

²M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhammedova, S.To'ychiyeva, M.Mavlonov, M. Djumabayeva. Yosh davrlar va pedagogic psixologiya. O'quv qo'llanma. - Toshkent. 2009, b-6,41-42.

³JalolovJ.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012, b-20.

bir necha rasmlar taqdim etiladi. Ular turli hayvonlar rasmi bo'lishi mumkin. O'qituvchi ushbu rasmlar orasidan bittasini tanlab, iltimos menga ko'rsating deydi. Masalan, *"Please show me a monkey"*, *"Please show me a rooster"*, *"Please show me a kitten"* va h.k. Ushbu shartlarni turlicha o'zgartirish mumkin, masalan *"Please give me"* tarzida. Bolalar avval o'qituvchining shartlarini bajaradi ya'ni o'qituvchini tinglaydi. Bunda tinglab tushunish faoliyati turi shakllantiriladi. Keyin esa bolalar ushbu o'yinni o'zaro o'ynaydilar, bunda gapirish nutq faoliyati shakllantirilib boriladi hamda chet tilda muloqot hosil qilinadi.



Keyingi o'yin ***"Whose baby is it?"*** deb nomlanadi. Ushbu o'yinda turli hayvonlar va ularning bolalari rasmlar orqali ko'rsatiladi va *"Whose baby is*



it?" deb savol beriladi. Bolalar rasmlarga qarab javob beradilar.



Whose baby is a puppy? Bolalar *"A puppy is a dog's baby"* deb javob berishlari kerak. Quyidagi namunalar orqali ham o'yinni davom ettirish mumkin.

A pig has a pigling.

A hen has a chicken.

A duck has a duckling.

A cat has a kitten.

Navbatdagio'yin **“My favourite weather”** deb nomlanadi. Bunda bolalarga turli ob-havo aks ettirilgan rasmlar ko'rsatiladi va o'qituvchi tomonidan nutq namunalari taqdim etiladi. O'quvchilar ushbu nutq namunalaridan foydalanib rasmda ko'rsatilgan ob-havoni tasvirlaydilar.



Masalan: I like sunny weather. I like warm weather. I like rainy weather. Dars jarayonida bolalardan bugungi ob-havo haqida so'rang.

Keyingi o'yin esa avvalgi o'yinning mantiqiy davomi bo'lib **“Animals and weather”** deb nomlanadi. Ushbu o'yinda o'quvchilarga turli hayvonlarning rasmlari taqdim etiladi. O'quvchilar rasmda ko'rsatilgan hayvonlar qanday ob-havoni yoqtirishlarini tasvirlaydilar. Nutq namunasi avval o'qituvchi tomonidan aytiladi. O'quvchilar ushbu namuna orqali o'yinni davom ettiradilar. Misol uchun:

Cats like sunny weather.

Frogs like rainy weather.

White bears like snowy and frosty weather.

Snakes like sunny and rainy weather.

Butterflies like sunny warm weather.

Kichik yoshdagilarga o'yin orqali chet til o'qitishda samarali natijalarga olib keladi. Kichik yoshdagilarning asosiy faoliyati o'yindir. Bu esa o'qituvchidan ijodkorlikni talab etadi, ya'ni har bir o'qituvchi dars mavzusidan kelib chiqib o'quvchi yoshiga mos o'yin yaratishi va uni to'g'ri tashkil etishi darsning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

References

1. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhammedova, S.To'ychiyeva, M.Mavlonov, M. Djumabayeva. Yosh davrlar va pedagogic psixologiya. O'quv qo'llanma. - Toshkent. 2009, b-6, 41-42.
2. Jablov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012, b-20.
3. <https://www.lex.uz/docs/4327235> O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh., 2019 yil 8 may, PQ-4312-son O'zbekiston Respublikasi

maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.

4. U.K. Mavlonova, S.K. Karimova. THE PROBLEM OF TEACHING ENGLISH IN MIXED ABILITY CLASSES. Dostijeniya nauki i obrazovaniya. 5 (59), 2020.
5. U.K. Mavlonova, Z.Z. Abulova, D.K. Kodirov. ROLE PLAY AS A METHOD OF DEVELOPING SPEAKING SKILL. Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 2020, p. 253-260.